Shuningdek, maqolada muhandislik ta'limining zamonaviy paradigmasi, sanoat ehtiyojlari asosida shakllanayotgan kompetensiyaviy yondashuv va CDIO (Conceive, Design, Implement, Operate) konsepsiyasi asosida kasbiy tayyorgarlik tizimi chuqur yoritiladi. Maqolada SCOPUS va Web of Science bazalaridagi 2018–2024-yillar oralig'idagi 35 ta ilg'or tadqiqot asosida qiyosiy-metodik tahlillar keltirilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi doirasida muhandislik ta'limini modernizatsiya qilishga oid takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: muhandislik ta'limi, kasbiy tayyorgarlik, CDIO, raqamli kompetensiyalar, sanoat integratsiyasi, dual ta'lim.

Abstract: This article provides an in-depth analysis of the key directions for preparing engineering students for professional activity. It highlights the impact of modern educational approaches, industry integration, practice-oriented curricula, and digital competencies on the effectiveness of engineering education, supported by analytical findings. In particular, the article examines the CDIO model, dual education, project-based learning, advanced international practices, and real challenges faced in higher education institutions in Uzbekistan.

Furthermore, the study explores the modern paradigm of engineering education, the competency-based approach shaped by industrial demands, and the professional training system based on the CDIO (Conceive, Design, Implement, Operate) framework. The article presents comparative and methodological analyses based on 35 advanced research studies published in SCOPUS and Web of Science databases between 2018 and 2024. Proposals for the modernization of engineering education within Uzbekistan's higher education system are also developed.

Key words: engineering education, professional training, CDIO, digital competencies, industry integration, dual education.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ актуальных направлений подготовки студентов инженерных специальностей к профессиональной деятельности. Освещается влияние современных образовательных подходов, интеграции с промышленностью, практико-ориентированных учебных программ и цифровых компетенций на эффективность инженерного образования на основе аналитических данных. В частности, рассматриваются модель CDIO, дуальное обучение, обучение на основе проектов, передовой зарубежный опыт и реальные проблемы в системе высшего образования Узбекистана.

Также в статье подробно анализируются современная парадигма инженерного образования, компетентностный подход, формирующийся на основе потребностей промышленности, и система профессиональной подготовки, основанная на концепции CDIO (Conceive, Design, Implement, Operate). Представлены сравнительно-методические анализы, основанные на 35 передовых исследованиях из баз данных SCOPUS и Web of Science за 2018–2024 годы. Разработаны предложения по модернизации инженерного образования в рамках высшего образования Узбекистана.

Ключевые слова: инженерное образование, профессиональная подготовка, CDIO, цифровые компетенции, интеграция с промышленностью, дуальное обучение.



KIRISH

XXI asrda muhandislik ta'limining mazmuni tubdan o'zgarmoqda. Global mehnat bozorining dinamikasi, to'rtinchi sanoat inqilobi (Industry 4.0), sun'iy intellekt va avtomatlashtirilgan tizimlarning keng tarqalishi muhandislarni tayyorlash tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. World Economic Forum (2022) ta'kidlaganidek, 2025-yilga borib muhandislik sohasidagi eng muhim kompetensiyalar analitik tafakkur, texnik muammolarni yechish va multidisipliner yondashuv bo'ladi.

O'zbekiston ta'lim tizimi ham bosqichma-bosqich transformatsiyalanmoqda. Biroq real sektor talablari bilan akademik tizim o'rtasidagi tafovut hali ham dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Shunday sharoitda muhandislik yo'nalishida tahsil olayotgan bo'lajak mutaxassislarni sanoat ehtiyojlari asosida tayyorlash strategiyalari muhim ilmiy muammo sifatida dolzarb bo'lib turibdi.

Muhandislik – jamiyat taraqqiyotining texnologik asosidir. Biroq bu sohada muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun faqat nazariy bilimlar yetarli emas. Dunyoda texnologiyalar keskin rivojlanayotgan hozirgi davrda amaliy ko'nikmalar, analitik fikrlash, jamoaviy ishlash va kompleks muammolarni hal qilish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, muhandislik ta'limini yangicha strategiyalar asosida qayta qurish zarurati yuzaga chiqdi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, muhandislik ta'limi amaliyot bilan uyg'unlashgan bo'lishi kerak. Bu borada CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate) modeli, dual ta'lim, raqamli texnologiyalar asosidagi o'qitish, simulyatsiya va loyiha asosidagi ta'lim metodikasi muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston uchun bu yondashuvlar yangilik bo'lmasa-da, ularni tizimli va zamonaviy shaklda joriy etish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri sifatida ko'rilmqda. Jahonning yetakchi ta'lim tizimlari bu yo'nalishda ta'lim mazmunini amaliyotga yaqinlashtirish, muhandislik kompetensiyalarini shakllantirish va sanoat bilan integratsiyalashgan o'quv metodikasini joriy etishga katta e'tibor qaratmoqda.

Xususan, Crawley E.F. va boshqalar (2014) tomonidan ishlab chiqilgan CDIO (Conceive – Design – Implement – Operate) konsepsiyasi muhandislik ta'limida innovatsion yondashuv sifatida tan olingan. Ushbu modelda talabaning kasbiy tayyorgarligi muhandislik amaliyotining to'liq tsiklini o'z ichiga oladi va bu orqali muhandislik fikrlash, loyiha asosida ishlash, hamkorlikda muammolarni hal qilish kompetensiyalari shakllantiriladi.

O'zbekiston sharoitida esa Xamidov N., Norqulov A., Sobirova M. kabi mualliflar ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish, sanoat ehtiyojlari asosida o'quv rejalari va fanning mazmunini qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlab o'tadilar. Shu bilan birga, ular duallik ta'lim tizimi, loyiha asosida o'qitish, modulli o'quv dasturlari kabi zamonaviy yondashuvlarning joriy etilishi muhandislik ta'limi sifatini oshirishga xizmat qilishini qayd etishadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada quyidagi metodologik yondashuvlar qo'llanildi:

- **Meta-tahlil:** SCOPUS va Web of Science ma'lumotlar bazalarida joylashgan 2018–2024-yillar oralig'idagi 40 dan ortiq maqola o'rganildi.
- **Empirik tahlil:** O'zbekistondagi 5 ta muhandislik oliy ta'lim muassasasida o'tkazilgan intervyu va so'rov-noma natijalari asosida tahlillar olib borildi.
- **Solishtirma metod:** AQSH, Finlyandiya, Germaniya va Janubiy Koreya tajribalari O'zbekiston holati bilan qiyoslandi.
- **Tizimli yondashuv:** CDIO modeli va sanoat integratsiyasining muhandislik o'quv dasturlariga kiritilish darajasi o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijasida turli olimlarning faoliyati tahlil qilindi. Xususan, bir qator olimlarning faoliyat doirasi o'rganib chiqilib, quyidagi natijalarga erishildi (1-jadval).



1-jadval: Muhandislik maktablari olimlar talqinida

№	Muallif (yil)	Tadqiqot yo'nalishi	Asosiy xulosa
1	Crawley et al. (2020) – MIT	CDIO metodologiyasi	Muhandislar uchun amaliyotga asoslangan modul o'qituvini taklif qiladi.
2	Kumar & Bansal (2021) – India	Raqamli kompetensiyalar	Muhandislik ta'limi raqamli texnologiyalar asosida qayta qurilishi kerak.
3	Lee & Park (2022) – Koreya	Dual ta'lim tizimi	Ishlab chiqarish bilan hamkorlik orqali bitiruvchilar bandligi 40% oshgan.
4	Tadjibayeva & Rakhimov (2023) – Uzbekistan	O'zbekiston tajribasi	Akademik va amaliy integratsiya zaif, loyihalashtirish ko'nikmalari yetarli emas.

Jahon tajribasi asosidagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, CDIO modeli (Crawley et al., 2020) – bu yondashuv talabalarga real muhandislik muammolarini aniqlash, dizaynlashtirish, tajriba asosida amalga oshirish va uni sanoatda tatbiq etishga tayyorlaydi.

MIT (AQSH), Chalmers University (Shvetsiya), Nanyang Technological University (Singapur) kabi universitetlar CDIO modelini amaliyotga muvaffaqiyatli joriy qilgan.

Dual ta'lim tizimi (Lee & Park, 2022) – Janubiy Koreyada har bir talabaga 1 yillik sanoat amaliyoti majburiy qilib joriy etilgan. Bu yondashuv bitiruvchilar bandligini 35–40 % ga oshirgan.

Finlyandiya tajribasi (Korpela et al., 2022) – JAMK University of Applied Sciences muhandislik ta'limida talabalar 3-kursdan boshlab sanoat laboratoriyalarida loyiha asosida ishlashadi.

Muhandislik oliy ta'lim muassasasida qanday kompetensiyalar zarur ekanligi yuzasidan bir qator oliy ta'lim muassasasi xodimlari bilan so'rovnomma o'tkazildi va qanday kompetensiyalar muhimligi o'rganib chiqildi. Natijalarga ko'ra, shuni aniqlash mumkinki: muhandislik OTMlarida nafaqat talaba, balki o'qituvchilar ham faol o'rinni egallaydi va ular ham zaruriy kompetensiyalarni egallashlari talab etiladi (2-jadval).

2-jadval: Muhandislik OTM o'qituvchilarining fikriga ko'ra eng dolzarb kompetensiyalar

№	Kompetensiya nomi	Ulushi (%)
1	Muammoni hal qilish	31
2	Texnik dizayn	28
3	Kommunikatsiya	19
4	Kompyuter simulyatsiyasi	13
5	Xavfsizlik va barqarorlik	9

Belgilangan maqsadga erishish uchun pedagogik sharoitlarning tahlili o'tkazildi. Biz pedagogik sharoitlarni muhandislik-texnologik yo'nalishdagi bo'lajak mutaxassislarning asosiy va kasbiy kompetensiyalarini samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi, chet tillarini o'qitish metod va vositalarini qo'llashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar majmuasi deb tushunamiz ^[1].

Pedagogik sharoitlarga quyidagilar kiradi:

- chet tilini o'qitish jarayoni uchun innovatsion o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqish, bu esa o'z tarkibining o'zgaruvchanligi bilan ajralib turadi;
- chet tili bo'yicha o'quv materiallarini kasbiy-texnik fanlar mazmuni bilan integratsiyalash;
- innovatsion o'quv-uslubiy yondashuvlarni joriy etish;
- chet tilini o'rganish uchun individualizatsiyalangan ta'lim muhitini yaratish.

Chet tilini o'qitish jarayonida o'qituvchi va talabalarning lingvodidaktik imkoniyatlarga asoslangan o'zaro ta'siri alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bois, interaktiv yondashuv nuqtayi nazaridan talabalarning tayyorgarligini takomillashtirishga xizmat qiluvchi g'oyalar va konsepsiyalar ayniqsa dolzarb hisoblanadi.

Biz interaktiv ta'limni quyidagicha ta'riflovchi olimlarning fikrini qo'llab-quvvatlaymiz: bu o'qitish usuli bo'lib, uning asosi – o'qituvchi bilan faol o'zaro ta'sir, o'quv jarayonining subyektlari va obyektlari o'rtasida muntazam va yaxshi tashkil etilgan teskari aloqa, hamda doimiy axborot almashinuviga asoslangan ^[2].

Interaksiya quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi:

- predmet darajasi – ta'lim jarayonining optimallashtirilishi;
- tarbiyaviy daraja – o'qitish jarayonida talabalarning tarbiyalanishi;
- motivatsion daraja – talabalarning qo'shma faoliyatga jalb qilinishi;
- o'z-o'zini o'qitish darajasi – talabalar mustaqil o'qish va o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun sharoit yaratish;
- shaxsiy daraja – talabaning individualligi va jamoaviy rivojlanishi.

Har bir daraja ta'lim samaradorligining oshishiga xizmat qiladi ^[3]. Interaksiya jarayonida subyekt-obyekt munosabatlari subyekt-subyekt munosabatlariga o'zgaradi, ya'ni o'qituvchi tomonidan faqatgina bilim yetkazilishi emas, balki talabalar kompetensiyalarining shakllantirilishi ham amalga oshiriladi.

Shunday qilib, tadqiqotchilar ta'kidlashicha, interaktiv ta'lim – bu o'zaro ta'sir jarayoni bo'lib, har bir harakat boshqa harakat uchun ham turtki, ham unga javob sifatida namoyon bo'ladi. Interaktiv ta'limning asosida ishtirokchilar o'rtasidagi subyektlil munosabatlar, o'qituvchi va muloqotdagi hamkorlar bilan faol axborot almashinuvi, yangi bilimlarni egallash hamda kommunikativ ko'nikmalar va malakalarni rivojlantirishga qaratilgan qo'shma faoliyat yotadi.

Shunday ekan, muhandislik-texnologik yo'nalishdagi mutaxassislarni interaktiv muhitda tayyorlash maqsadga muvofiq, chunki bu:

- kasbiy jihatdan muhim bo'lgan axborotni idrok etish va talqin qilish ko'nikmalarini tezroq shakllantirishga yordam beradi;
- talabalarning kasbiy kompetensiyalarni egallashiga imkon yaratadi.

Chet tillarini interaktiv o'qitishda bahs-munozara, debat va polemika kabi metodlar alohida ahamiyat kasb etadi, chunki ular faol dialogik almashinuvga asoslangan.

Chet tilini o'qitish jarayonida ushbu metodlar:

- talabalar o'rtasida guruh ichidagi va guruhlararo interaksiyani tashkil etishda;
- o'qituvchining rahbarligi ostida auditoriya va auditoriyadan tashqarida mustaqil faoliyatni olib borishda;
- an'anaviy va masofaviy formatlarda ta'limni samarali tashkil etishda qo'llaniladi.

Ilmiy adabiyotlarning tahlili yangi avlod mutaxassislari asosiy va kasbiy kompetensiyalar majmuasini shakllantirish bo'yicha mavjud yondashuvlarni aniqlash imkonini berdi.

Asosiy yondashuvlardan biri – kompetensiyaviy yondashuv. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, kompetensiya – bu nazariy va amaliy muammolarni hal qilish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui hisoblanadi ^[4].

Asosiy (universal) kompetensiyalarning tarkibi:

1. Kognitiv komponent – fundamental bilimlar majmui;
2. Shaxsiy komponent – talabaning dunyoqarashi va qadriyat yo'nalishlarini o'z ichiga olgan subyektiv yo'nalishlar;
3. Faoliyat-tahliliy komponent – nostandart vaziyatlarda samarali yechimlarni topish qobiliyati.

O.O. Andronnikova tomonidan universal kompetensiyalar quyidagicha tasniflanadi:

Axborot kompetensiyalari:

- yozma/yuzma axborotni qabul qilish, tushunish va talqin qilish;
- mustaqil ravishda axborot olish va uni yangi matnlar yaratishda qo'llash.

Kommunikativ kompetensiyalar:

- muayyan diskursiv vaziyat uchun muhim bo'lgan omillarni aniqlash va hisobga olish;
- chet tilidagi matnni talqin qilish va muhokama qilingan muammolar yuzasidan og'zaki yoki yozma shaklda o'z fikrini ifodalash;
- bahs-munozaralarda ishtirok etish va o'rganilayotgan mavzu bo'yicha taqdimot qilish.

Umumiy madaniy kompetensiyalar:

- ijtimoiy munosabatlar me'yorlarini bilish va ularga rioya qilish;
- muloqot orqali samarali o'zaro ta'sirga kirishish qobiliyati.

Yuqorida sanab o'tilgan kompetensiyalar mutaxassisning nafaqat kasbiy mahoratini, balki uning dunyoqarashini ham belgilaydi.

Belarus Respublikasining texnik oliy o'quv yurtlarida umumiy va chuqurlashtirilgan oliy ta'lim olish jarayonida chet tilini o'qitishda talabalar uchun chet tilidagi kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Bu jarayonda chet tilida muloqot qilish komponentasi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarlik tizimi bilan integratsiya qilinadi.

Bunday yondashuv ularga kasbiy faoliyat doirasida kommunikativ vazifalarni muvaffaqiyatli hal qilish imkonini beradi. Integratsiya jarayonida ta'lim natijasi sifatida bilimlarni egallash asosiy ko'rsatkich sifatida emas, balki ularni amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyati muhim omil sifatida baholanadi.

Texnik yo'nalishdagi mutaxassisning chet tilida kasbiy yo'naltirilgan kommunikativ kompetensiyasi – bu:

- chet tilida kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarni tushunish va undan foydalanish;
- xalqaro integratsiya sharoitida madaniyatlararo kasbiy muloqotni amalga oshirish;
- o'zini o'zi o'qitish va rivojlantirishga qaratilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui hisoblanadi ^[6].

So'nggi yillarda muhandislik maktablarida olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda ham muhandislik maktablarini yaratishga ehtiyoj sezilarli darajada. Xususan, bu ehtiyojni tekshirish maqsadida bir qator OTMlarda so'rovnoma o'tkazildi.




So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'rganilgan 5 ta OTMning 83 % o'qituvchilari CDIO modelining faqat dastlabki bosqichi (Conceive) amalda qo'llanilayotganini bildirgan. Sanoat bilan uzviy hamkorlik esa 28 % holatda kuzatilgan.


3-jadval: O'zbekiston va xorijiy muhandislik ta'limi tizimlarining qiyosiy tahlili

Ko'rsatkich	O'zbekiston	AQSH	Finlyandiya	Koreya
CDIO to'liq joriy etilganlik (%)	15	85	80	70
Dual ta'lim mavjudligi	30%	60%	90%	100%
Amaliy mashg'ulotlar ulushi (%)	25	60	70	75

Shuningdek, yurtimizning oliy ta'lim muassasalarida CDIO ko'rsatkichi foizlari quyidagicha(1-diagramma)



1-rasm: CDIO modelining O'zbekistondagi OTMlarda qo'llanish darajasi (%)



2-rasm: Muhandislik OTM o'qituvchilari fikricha eng dolzarb kompetensiyalar (%)

- 34% – muammoli vaziyatni hal qilish
- 28% – texnik dizayn
- 18% – jamoaviy ish
- 12% – raqamli texnologiyalar
- 8% – kommunikatsiya ko'nikmalari



O'zbekistonda muhandislik ta'limini modernizatsiya qilish jarayonida muhim imkoniyatlar bilan birga sezilarli muammolar ham mavjud. CDIO modelining to'liq joriy etilishi uchun laboratoriyalarni texnik jihatdan qayta jihozlash, o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish va o'qituvchilar malakasini oshirish zarur. Dual ta'lim bo'yicha sanoat bilan hamkorlik memorandumlari ko'plab OTMLar tomonidan imzolangan bo'lsa-da, amalda ular to'liq ishlamayapti.


Natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda muhandislarni kasbiy tayyorlash tizimi hali CDIO tamoyillariga to'liq mos emas. Ta'lim jarayoni ko'proq nazariy yondashuvga asoslangan bo'lib, amaliy mashg'ulotlarning ulushi yetarli emas.

Crawley va hammualliflar (2020) ta'kidlaganidek: "Muhandislik ta'limi bu – faqat dars emas, balki ishlab chiqarishni sinfga olib kirishdir."

Shuningdek, dual ta'lim tizimi Janubiy Koreyada 20 yil davomida bosqichma-bosqich joriy etilib, hozirda har bir talabaga ikki semestr sanoat amaliyoti majburiy hisoblanadi (Lee & Park, 2022). O'zbekiston uchun bu modelning adaptatsiyasi sanoat klasterlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Yuqoridagi global tajribalarga asoslanib aytish mumkinki, O'zbekistonda muhandislarni kasbiy tayyorlash tizimini quyidagi yo'nalishlarda isloh qilish maqsadga muvofiq:

1. CDIO modelining barcha bosqichlarini o'quv dasturlariga integratsiya qilish;
2. Raqamli kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish;
3. Sanoat laboratoriyalari asosida loyiha asosida ta'lim olib borish;
4. O'qituvchilarni zamonaviy sanoat texnologiyalaridan xabardor qilish;
5. Simulyatsiya va virtual laboratoriyalarni yaratish.



3-rasm: O'zbekistonda 2019–2024-yillarda muhandislik fakulteti bitiruvchilarining bandlik ko'rsatkichi

2020-yilda 58% → 2024-yilda 64%, biroq sanoatga mos malaka egasi atigi 38%ni tashkil etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Muhandislik ta'limi – iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishiga asos bo'ladigan ustuvor yo'nalishdir. Bugungi kunda faqat nazariy bilim emas, balki real amaliy ko'nikmalar, kasbiy kompetensiyalar, texnologik savodxonlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatiga ega kadrlarni tayyorlash ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. CDIO modeli, dual ta'lim va raqamli ta'lim texnologiyalarining uyg'unligi muhandislik ta'limining barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Muhandislarni tayyorlashda quyidagi yo'nalishlar ustuvor bo'lishi lozim:

1. CDIO asosidagi o'quv rejalarini joriy etish;
2. OTM–sanoat integratsiyasini kuchaytirish (bitiruv ishlarini korxonalar asosida tayyorlash);
3. STEM+AI yo'nalishlarini chuqurlashtirish;
4. Raqamli platformalarda amaliy mashg'ulotlar yaratish (simulyatorlar, virtual laboratoriyalar);
5. Mentorlik tizimi – sanoat mutaxassislari ishtirokida loyiha asosida ta'limni tashkil etish.


Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ипполитова, Н.А. Анализ понятия “педагогические условия” : сущность и классификация / Н.А. Ипполитова. – Generaland Professional Education, 2012. – С. 8–14.
2. Селевко, Г.К. Энциклопедия образовательных технологий / Г.К. Селевко. –Москва : Народное образование. – Т.1. – 2005.
3. Харламова, Н.С. Составляющие педагогического общения в условиях профессионально ориентированного обучения иностранным языкам (нелингвистическое направление подготовки) / Н.С. Харламова, И.Ю. Фролова // Вестн. МГЛУ. Образование и педагогические науки. – 2023. – Вып. 1 (846). – С. 39–42.
4. Crawley, E. F., Malmqvist, J., Östlund, S., Brodeur, D. R., & Edström, K. (2020). Rethinking engineering education: The CDIO approach. Springer.
5. Lee, H., & Park, J. (2022). Enhancing employability through work-integrated learning: Evidence from Korean engineering programs. *Asian Journal of Education*, 43(2), 203–218.
6. Kumar, V., & Bansal, A. (2021). Digital competency frameworks in engineering: A scoping review. *International Journal of Engineering Education*, 37(6), 1256–1271.
7. Korpela, A., Rintala, U., & Nieminen, J. (2022). Integrating industrial projects into engineering curricula: The Finnish model. *European Journal of Engineering Education*, 47(2), 133–149.
8. Tadjibayeva, D., & Rakhimov, M. (2023). Competency-based engineering education in Uzbekistan: Challenges and perspectives. *Central Asian Journal of Technical Research*, 5(1), 45–60.
9. World Economic Forum. (2022). The future of jobs report 2022. <https://www.weforum.org/reports/the-future-of-jobs-report-2022>
10. Бейзеров, В.А. Совершенствование образовательного процесса в магистратуре на основе компетентностного и модульного подходов / В.А. Бейзеров, В.Н. Дворак // Известия Гомельского государственного университета им. Ф. Скорины. Социальноэкономические и общественные науки. – 2021. – № 5 (128). – С. 9–13.
11. Андронникова, О. О. Методологические подходы к выделению универсальных компетенций, формируемых в воспитательном пространстве вуза / О. О. Андронникова, Н. С. Беззубова // Вестн. Кемер. гос. ун-та. – 2017. – №1. – С. 85–89.
12. Бутько, М.А. Иноязычная профессионально-ориентированная коммуникативная компетенция как компонент профессиональной компетентности будущих инженеровтехнологов / М.А. Бутько // Весці БДПУ. Сер. 1, Педагогіка. Психологія. Філологія. – 2020. – №1. – С. 60–63.
13. Арутюнова, Н. Д. Дискурс / Н. Д. Арутюнова. – Лингвистический энциклопедический словарь (гл. ред. В. Н. Ярцева). – 2-е изд., доп. – М. : Большая рос. энцикл., 2002. – 707 с.
14. Карасик, В. И. О типах дискурса / В. И. Карасик. – Языковая личность: институциональный и персональный дискурс : сб. науч. тр. / Волгогр. гос. пед. ун-т : редкол.: В.И. Карасик (отв. ред.) [и др.]. – Волгоград, 2000. – С. 5–20.
15. Хоменко, Е.В. Экспликация позиции автора в жанровых разновидностях научного текста / Е. В. Хоменко // Известия Гомельского государственного университета имени Ф. Скорины. Гуманитарные науки. – 2024. – №1 (142). – С. 105–110.
16. Сафонова В.В. Английский язык: сборник заданий / В. В. Сафонова, Е. В. Бутенкова, П. А. Зуева. – Москва : Эксмо, 2014. – 288 с.
17. Khakimjonovna, B. P., Ogli, U. I. I., & Ogli, V. O. N. (2023). Using Kahoot Technology in Teaching English. *Строительство и образование*, 4(5-6), 148-154.
18. Khakimjonovna, B. P. (2023). The importance of innovative and information technologies in teaching foreign languages. *Строительство и образование*, 2(4), 53-58.
19. Khakimjonovna, B. P. (2023). Problems of using approach and methods in teaching english in non-philology education. *Строительство и образование*, 2(4), 44-49.
20. Махкамов, Г. У., & Тўраев, Н. С. (2022). Анор тупларини ярим очадиган қурилма параметрларининг мақбул қийматларини аниқлаш. *Строительство и образование*, (1), 121- 126.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.